



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

№3

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar:  Google Scholar  Crossref  OpenAIRE  CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

3-jild
3-son
March, 2026

February, 2026
Volume 3
Number 3

ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)

Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

**Каршинский государственный технический
университет**

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук,
профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в
электронной форме и публикуется через
официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал
«Инновационная экономика» включён в перечень
национальных научных изданий на основании
решения Президиума Высшей аттестационной
комиссии при Министерстве высшего образования,
науки и инноваций Республики Узбекистан от 5
апреля 2025 года № 369.

**В журнале публикуются статьи по
следующим рубрикам:**

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное
предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и
аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик
(Южный федеральный университет, Россия)
Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор
(Белорусский национальный технический университет)
Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор,
(Кубанский государственный университет)
Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский
государственный университет)
Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик
(НААН Республика Казахстан)
Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор
(Таджикистанский аграрный университет им. Ш.
Шотемура)
Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент
(Национальный исследовательский университет
«Московский энергетический институт»)
Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник
(Российского университета дружбы народов имени
П.Лумумби)
Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент
(Финансовый университет при Правительстве РФ)
Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент
(Финансовый университет Правительство РФ)
Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н.,
профессор (Национальная академия наук Республики
Таджикистан)
Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор
(Финансовый университет при Правительстве РФ)
Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский
государственный университет имени М.В. Ломоносова)
Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор
(Финансового университета Российской Федерации)
Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского
университета дружбы народов имени П. Лумумби)
Неземайкин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)
Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)
Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)
Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем
управления РАН)
Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский
экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор,
академик
Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор
Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор
Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор
Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор
Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор
Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент
Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор
Якубова Шаминаур Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент
Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент
Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент
Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Эрашиева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент
Бобокулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент
Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD),
доцент
Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)
Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)
Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)
Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
Economy of the region and industry
Экономика региона и отрасли



QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI EKSPORT QILISH SALOHİYATINI OSHIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Mamatov Axmetjon Atajanovich, Xurramov Azamat Fayzullayevich

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭКСПОРТНОГО ПОТЕНЦИАЛА СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ ПРОДУКЦИИ

Маматов Ахметжон Атажанович, Хуррамов Азамат Файзуллаевич

SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS FOR INCREASING THE EXPORT POTENTIAL OF AGRICULTURAL PRODUCTS

Mamatov Akhmetzhon Atajanovich, Khurramov Azamat Fayzullaevich

Received: March 5, 2026 Revised: March 8, 2026 Accepted: March 14, 2026 Published: April 1, 2026

Annotatsiya: maqolada qishloq xo'jaligi maxsulotlari eksport qilish salohiyatini oshirishning ilmiy-nazariy asoslari, komponentlari, omillari tadqiq etilgan va uni takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: eksport salohiyati, ichki va tashqi muhit, komponentlari, eksport shartnomalari, eksport qilish tizimi, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, marketing, logistika, rentabellik.

Аннотация: в статье исследованы научно-теоретические основы, компоненты и факторы повышения экспортного потенциала сельскохозяйственной продукции, а также разработаны предложения и рекомендации по его совершенствованию.

Ключевые слова: экспортный потенциал, внутренняя и внешняя среда, компоненты, экспортные контракты, система экспорта, государственная поддержка, маркетинг, логистика, рентабельность.

Abstract: The article examines the scientific and theoretical foundations, components, and factors of increasing the export potential of agricultural products, and develops proposals and recommendations for its improvement.

Keywords: export potential, internal and external environment, components, export contracts, export system, government support, marketing, logistics, profitability.

■ KIRISH

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eksport salohiyatini kengaytirish hamda uning tizimini yanada takomillashtirish mamlakatimizning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. "Dasturda qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq ho'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga etkazish. Eksportbop mahsulotlar etishtirish hamda meva-sabzavotchilikni rivojlantirish, intensiv bog'lar maydonini 3 baravar va issiqxonalarni 2 baravar ko'paytirib, "Global savdo tizimida "o'yin qoidalari" o'zgarayotgan bir paytda biz bu yil eksportimizni 23 foizga oshirib, 33,4 milliard dollarga etkazamiz" [1].

■ ADABIYOTLAR TAHLILI

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport tizimini takomillashtirish muammolari xorijlik olimlardan

A.Alchiana, Ye.Bem-Baverka, Dj.Gelbreyta, M Djensen, M.Djonstona, R.Lukasa, A.Maslou, U.Meklinga, Dj.Millya, Dj.Xiksa, Y.Shumpeter, K. Errou va boshqalar tadqiqotlar olib borishgan.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport tizimini takomillashtirish muammolari bo'yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borgan rus olimlariga S.B. Avdashev, A.V. Ariskina, E.V. Afanasyeva, A.P. Balashova, N.F. Vernigor, S.A. Gribovskiy, M.P. Gritsenko, V.P. Zotova, A.I. Suchkova, V.P. Teplova, A.Ya. Trotskovskiy, V.A. Chertova va boshqalarni keltirish mumkin.

O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport tizimini takomillashtirishning ilmiy-nazariy va amaliy jihatlarini Respublikamiz olimlaridan Salimov B.T., Yusupov A.S., Xushmatov N., Aliev Ya., Inomjonova F.A., Xushvaqto'v X.S. Hasanov Sh.T., Sirojiddinov K.I., Siddiqov R., Murodov Ch., Isamiddinov M va boshqalarning mazkur sohaga dahldor ilmiy tadqiqot ishlarini ko'rsatish mumkin.



Iqtisodchi olim J.Saksning fikricha “dunyodagi har qanday davlatning iqtisodiy muvaffaqiyati tashqi savdoda ko‘rinadi. Hozirgi kunga qadar hech bir mamlakat jahon iqtisodiy tizimidan ajralgan holda sog‘lom iqtisodiyotni hosil qila olgani yo‘q” [2].

Rus olimi A. Serkovning fikricha, “qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozori ancha keng qamrovli tushunchadir. U oziq-ovqat bozori va moddiy-texnika resurslari, er va kapital, mehnat va ilmiy-texnika mahsulotlari bozorini birlashtira oladi. Bu bozorlarning barchasi bir-biriga bog‘langan, ammo ularning har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega” [3].

Respublikamiz olimlaridan Ya.E. Aliev xulosalariga ko‘ra, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozorida mahsulotni iste‘molchilarga etkazib berish tizimidagi muammolar tufayli etishtirilgan hosil nobudgarchiligi, mahsulotlar raqobatbardoshligi pasayishi yuz bermokda[4].

■ TADVIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada dialektik, tizimli, integral va sinergetik yondashuvlar, iqtisodiy, mantiqiy, ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, qiyoslash, umumlashtirish, guruhlash va jadval usullaridan foydalaniladi

■ TAHLIL VA NATIJALAR

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning an‘anaviy va eng keng rivojlangan ko‘rinishlaridan biri tashqi savdo hisoblanadi. Jahon iqtisodiyotida ro‘y berayotgan xalqaro iqtisodiy munosabatlar umumiy hajmining 75-80%i tashqi savdoning ulushiga to‘g‘ri keladi. Jahon mamlakatlari uchun tashqi savdoning roli kattadir. Iqtisodchi olim J.Saksning fikricha “dunyodagi har qanday davlatning iqtisodiy muvaffaqiyati tashqi savdoda ko‘rinadi. Hozirgi kunga qadar hech bir mamlakat jahon iqtisodiy tizimidan ajralgan holda sog‘lom iqtisodiyotni hosil qila olgani yo‘q”[5]. Xalqaro savdoda xalqaro mehnat taqsimoti asosida paydo bo‘ladigan turli davlatlarni tovar ishlab chiqaruvchilari o‘rtasidagi aloqalarning bir shakli bo‘lib, ular o‘rtasidagi o‘zaro iqtisodiy bog‘liqlikni namoyon qiladi[6].

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport qilish muammolari “eksport salohiyati” tushunchasini asoslashni taqozo etadi. Iqtisodiy fanda ushbu tushunchani tadqiq etish XX asrning 90-yillarida, ya‘ni korxonalar tomonidan tashqi savdo faoliyati alohida, mustaqil sub‘ektga aylangan davrdan boshlandi. Eksport salohiyati deganda, birinchi navbatda, mahsulotlarning jahon bozoridagi raqobatbardoshlik darajasi tushuniladi. Uning kengaytirilgan ma‘nosi bu mamlakatning mavjud yoki ishlab chiqarilgan resurslar va mahsulotlarni eksport qilish salohiyatini ifoda etadi. M. Seyfullaev va V. Kapitsinning fikricha, “mamlakatning eksport salohiyati - bu milliy iqtisodiyotning ilmiy-texnikaviy, texnologik, sanoat, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlovchi resurs bazasi va iqtisodiy rivojlanishining umumiy holatidir”. M. Seyfullaevning xulosasiga ko‘ra: “Eksport salohiyati eksport resurslaridan oqilona foydalanish jarayonida mavjud va bashorat qilinayotgan bozor sharoitida mahalliy va xorijiy xaridorlarning tovar va xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojlarini shakllantirish va uni maksimal darajada qondira oladigan real imkoniyatlarga aytiladi”[7].

D.A. Fokina va G.Ya. Belyakov xulosalariga ko‘ra “... ichki va tashqi muhit ta‘sirida mahsulot ishlab chiqarish va uni tashqi bozorda sotish uchun ob‘ektiv mavjud imkoniyatlar va resurslar yig‘indisi” deb tushunadi[8]. V.V. Rogovning so‘zlariga ko‘ra, milliy iqtisodiyotning eksport salohiyati bu (tabiiy-iqlim sharoitlari, tuproq, resurslar, qulay geografik, infratuzilma omillari) va ilm-fan va texnikaning eng yangi yutuqlariga asoslangan yangi raqobatdosh qiyosiy ustunliklaridan samarali foydalanib, iqtisodiyot sohalari, tarmoqlari, korxonalari va kompaniyalari tomonidan jahon bozorida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish qobiliyatini imkoniyatlarini ifoda etadi[9]. Professor N.V. Klimova qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining eksport salohiyatini milliy iqtisodiyotning xalqaro bozorda raqobatbardosh bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni etarli miqdorda va belgilangan jahon narxlarida eksport qilish qobiliyati deb baholaydi[10]. L.A. Lobanova “...eksport salohiyatining rivojlanish darajasi butun agrosanoat majmuasi faoliyati samaradorligiga bevosita bog‘liq”, deb hisoblaydi[11].

Eksport salohiyati uchta komponentdan kelib chiqib ko‘rib chiqilishi kerak:

1) qishloq xo‘jaligi tarmog‘idagi yalpi resurslar xajmi;

2) sanoatning jahon bozorida talab qilinadigan mahsulotlarni ishlab chiqarish qobiliyati;

3) erishilgan iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy rivojlanish darajasini, tashqi savdo infratuzilmasining rivojlanish darajasini va eksportni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini hisobga olgan holda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish imkoniyatlari .

Mamlakatda qishloq xo‘jaligining eksport salohiyati ma‘lum bir hudud chegaralarida joylashgan barcha ijtimoiy takror ishlab chiqarishning iqtisodiy omillar va davlat tomonidan eksportni qo‘llab-quvvatlash tizimini rivojlanishning erishilgan darajasidan kelib chiqqan holda aniq tashqi bozorlarga raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va etkazib berish qobiliyatini ifoda etadi. Miqdoriy jihatdan eksport salohiyati bu ma‘lum vaqt oralig‘ida tashqi bozorlarga raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va sotishga qodir bo‘lgan tarmoq tuzilmalari soni bilan belgilanadi .

Milliy xo‘jalikda qishloq xo‘jalik mahsulotlarini eksport qilishda ishtirok etishni rag‘batlantiruvchi omillarga quyidagilar kiradi:

- tabiiy resurslardan foydalanish va mehnat taqsimoti samaradorligini oshirish;

- ishsizlik darajasini pasaytirish;

- ASM tarmoqlarining raqobatbardoshlik darajasini oshirish;

- mahalliy va xorijiy investorlar uchun tarmoqning investitsion jozibadorligini oshirish;

- milliy iqtisodiyotning tarkibiy tuzilmasini takomillashtirish va iqtisodiy o‘sish drayverlarining paydo bo‘lishi;

- davlatning to‘lov balansini yaxshilash[12].

Mamlakat qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining eksport salohiyati ko‘plab ichki va tashqi omillar ta‘sirida shakllanadi. Ichki omillarga quyidagilar kiradi:

1) davlatning iqtisodiy rivojlanish darajasi;



2) milliy xo'jalikni iqtisodiy va geografik joylashuvi (dengiz portlari, asosiy magistral yo'llardan uzoqligi, boshqa davlatlar bilan chegaralari);

3) milliy xo'jalikning tabiiy-iqlim sharoiti (unumdor erlarning mavjudligi, yog'ingarchilik miqdori va boshqalar);

4) moddiy-texnik imkoniyatlar (eng yangi innovatsion texnologiyalarning mavjudligi va ulardan foydalanish, zamonaviy moddiy-texnika bazasi va boshqalar);

5) kadrlar salohiyati (zamonaviy biznesda ishlash kompetensiyalariga ega va xalqaro bozorda ishlash ko'nikmalariga ega bo'lgan yuqori malakali menejerlar va mutaxassislar);

6) intellektual salohiyat (ASMDa intellektual kapitalni takror ishlab chiqarish mexanizmi);

7) logistika va transport infratuzilmasi (mahsulotlarni tashish uchun dengiz portlari, yo'llar va yuk tashish uchun transportning mavjudligi).

Tashqi omillarga milliy iqtisodiyotda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini xalqaro bozorda sotish imkonini beruvchi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va tashkiliy munosabatlar bilan ifodalanadi. Ular iqtisodiy tizimdan tashqarida paydo bo'ladi. Ularga quyidagilar kiradi:

1) jahon qishloq xo'jalik mahsulotlarining bozorining tendensiyalari, holati va sig'imi (bozorga kirish to'siqlarining mavjudligi, raqobatchilar, iste'mol va boshqalar);


2) davlatning amortizatsiya, soliq, moliya, kredit va investitsiya siyosati;

3) ma'muriy tartibga solish (qonunlar, strategiyalar, eksportni qo'llab-quvvatlash dasturlari);

4) qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sertifikatlashtirish va standartlashtirishning davlat tizimi;

5) xalqaro alyanslar, ittifoqlar va boshqa birlashmalarning faoliyati.

Bundan tashqari, davlatning eksport salohiyatining rivojlanishini ikki turdagi omillar orqali aniqlash mumkin: Statik – tabiiy resurs tabiatining qiyosiy afzalliklari va dinamik - ilmiy-texnikaviy taraqqiyot va innovatsiyalar bilan bog'liq raqobatdosh ustunliklar. Agar mamlakatda qiyosiy va texnologik raqobatdosh ustunliklar birlashtirilgan bo'lsa, bu ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning jahon bozorida raqobatbardoshligini kuchaytirish, eksport salohiyatini oshirish va iqtisodiy rivojlanishini rag'batlantirish imkonini beradi.



1-rasm. Qishloq xo'jaligining eksport salohiyati komponentlari[13]



Shunday qilib, mamlakat ASMning eksport imkoniyatlari jami tashkiliy, iqtisodiy, kadrlar, tabiiy resurs, bioiqlim, innovatsion, ishlab chiqarish, marketing va investitsiya salohiyatini o'z ichiga oladi. Davlatning qishloq xo'jalik tarmog'i uchun ishlab chiqarish natijalarining tabiiy-iqlim sharoitiga bog'liqligi kabi xususiyat tufayli davlatning eksport strategiyasini ishlab chiqishda tabiiy resurs va bioiqlim salohiyati alohida ahamiyatga ega. Ularning xususiyatlariga qarab, qishloq xo'jalik mahsulotlarini eksport qilish tarkibi va hajmi shakllanadi.

Milliy iqtisodiyotda qishloq xo'jalik mahsulotlarining eksport salohiyatini oshirish yo'llari quyidagilardan iborat:

- qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini eksport uchun mahsulot ishlab chiqarishni rag'batlantiruvchi shart-sharoitlar yaratish;
- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining rentabelligini ta'minlash uchun narxlar paritetini o'rnatish;
- eksportyorlarni davlat tomonidan maqsadli qo'llab-quvvatlash;
- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini innovatsion rivojlantirish, sifatli va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan eng yangi texnologiyalarni joriy etish;
- qishloq xo'jaligida marketing faoliyatini rivojlantirish;
- tarmoqda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini (shu jumladan, ulgurji sotish markazlari va boshqalarni qurish) mavjudlarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilishga ko'maklashish;
- qishloq xo'jalik mahsulotlari eksportini boshqarish tizimini takomillashtirish.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eksport salohiyatining o'ziga xos xususiyati nafaqat tabiiy-iqlim sharoitidagi sezilarli farqda, balki uning mamlakatga to'g'ridan-to'g'ri kirish mezonlari bo'yicha chegara - ichki joylashuviga va o'zni tengsizligida hamdir. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligining eksport salohiyatini oshirish, avvalambor, uning infratuzilma tizimiga sezilarli darajada investitsiya kiritish orqali uning moddiy-texnika bazasini mustaxkamlash hisobidan oshirish mumkin. Yangi texnologiyalarga, qishloq xo'jaligi texnikasi va uskunalarga sarmoya kiritilishi, tarmoqda raqobatbardosh qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirish imkonini bermoqda. Eksport salohiyatini oshirish infratuzilmaga (bozor, logistika, ishlab chiqarish, qayta ishlash) katta miqdorda sarmoya kiritishni talab qiladi, bu esa tarmoqni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni dolzarbligini belgilaydi. Eksportni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va uning salohiyatini yuksaltirishning keng ko'lamli instrumentlaridan foydalanish ham butun mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishi hisoblanadi.

Respublikamizda iqtisodiyotni erkinlashtirish bosqichida meva-sabzavotchilik va uzumchilik faoliyati bozorini tashkil etish, boshqarish va uning samaradorligini oshirishning nazariy va amaliy

jihatlarini X.S.Xushvaqto'vning tadqiqotlarida agrar iqtisodiy jarayonlardagi murakkab iqtisodiy aloqalarning statistik tahlili, ehtimollikni aniq darajalarida aniqlash, qishloq xo'jaligi rivojlanishi darajasini kelajakka prognoz qilish va rejalashtirishning aniq ko'rsatkichlar tizimi ishlab chiqilgan[14]. U.S.Muhitdinovning tadqiqot ishida meva-sabzavot va uzum mahsulotlari bozorining rivojlanishi, marketing tizimini takomillashtirish masalalari tadqiq qilingan[15]. Shuningdek, meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash tizimi, ichki va tashqi bozorlardagi savdosi hamda marketing kanallari ishtirokchilarining o'zaro munosabatlarini rivojlantirish masalalarining nazariy-uslubiy asoslari Ya.Alievning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.

Soha mutaxassislari M.X.Saidov, I.B.Rustamovlar "Yangi va qayta ishlangan mahsulotlarni sotish bozorlaridagi marketing izlanishlar" nomli o'quv qo'llanmada O'zbekistonda meva-sabzavot mahsulotlari eksportining ahamiyati, jahon meva-sabzavotlar bozorida O'zbekistonning tutgan o'zni, meva-sabzavot mahsulotlari eksport qilishning me'yoriy-huquqiy asoslari, meva-sabzavot mahsulotlari eksportiga ta'sir qiluvchi omillar, qishloq xo'jaligida logistik yondashuvlar, milliy va xalqaro "GLOBALGAP" standarti mohiyati va ahamiyati, uni joriy etish chora-tadbirlari keltirilgan[16]. Boshqa mualliflar iste'molchiga e'tibor qaratgan holda qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorining ta'riflarini berishadi: sotish kanallarini belgilash zarurligi hamda biologik ehtiyojlar va samarali talabni cheklovchi omillar sifatida ko'rsatishgan. Iste'molni qondirish uchun funksiyalarni taqsimlash, yangi ehtiyojlarni shakllantirish zarurligini ta'kidlashgan[16].

■ XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida qishloq xo'jalik mahsulotlari bozori ancha keng qamrovli tushuncha bo'lib u oziq-ovqat bozori va moddiy-texnika resurslari, er va kapital, mehnat va ilmiy-texnika mahsulotlari bozorini birlashtiradi. Uning o'ziga xosligi, unda talab va taklifning etarli darajada moslashuvchan emasligida ya'ni, bu qishloq xo'jalik mahsulotlarining past narx elastikligi bilan asoslanadi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ishlab chiqaruvchidan tortib oxirgi iste'molchigacha bo'lgan xarakatining samarali tizimini ta'minlash qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozori tuzilishini rivojlantirishdagi eng dolzarb masalalardan hisoblanadi. Davlatning oldida turgan strategik vazifalardan biri bu eksportni rivojlantirish, uning tarkibida yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ulushini va mahalliy mahsulotlarning jahon bozorlarida raqobatbardoshlik darajasini oshirishdan iborat.

Mamlakatda qishloq xo'jaligining eksport salohiyati, bu ma'lum vaqt oralig'ida tashqi bozorlarga raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va sotishga qodir bo'lgan tarmoq tuzilmalari soni bilan belgilanadi. Eksport salohiyatini oshirish infratuzilmaga (bozor, logistika, ishlab chiqarish, qayta ishlash) katta miqdorda sarmoya kiritishni talab qiladi, bu esa tarmoqni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni dolzarbligini belgilaydi.



Eksportni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va uning salohiyatini yuksaltirishning keng ko'lamli instrumentlaridan foydalanish ham butun mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishi hisoblanadi.

Muallif (lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Mamatov Axmetjon Atajanovich TDIU professori / Маматов Ахметжон Атаджанович профессор ТДИУ / Mamatov Akhmetjon Atajanovich, professor, TSUI

E-mail: mamatovahmadjon@rambler.ru

ORCID: 0000-0001-5315-006X

2. Xurramov Azamat Fayzullayevich QDTU professori / Хуррамов Азамат Файзуллаевич профессор, КГТУ / Khurramov Azamat Fayzullaevich professor, KSTU

E-mail: azamat.khurramov@mail.ru

ORCID: 0009-0005-5416-999X

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va xalqqa qilgan Murojaatnomasi. 26 dekabr. 2025 yil. <https://uzts.uz/ozbekiston-respublikasi-prezidenti>.

2. Сакс Д. Сена цивилизации. М.: Издательство Института Гайдара, 2012. 352 с.

3. Серков, А. Ф. Рынок и управление в АПК / А. Ф. Серков // Международный сельскохозяйственный журнал. – 2004. - №2.

4. Aliev Ya.E. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari, agrosurslar va agroxiizmatlar bozorlari rivojlanishi mutanosibligini ta'minlash yo'nalishlari. Monografiya. - T.: IQTISODIYOT, 2017. – B.19.

5. Сакс Д. Цена цивилизации. М.: Издательство Института Гайдара, 2012. 352 с.

6. Shodiev R., E.Mahmudov. Jahon iqtisodiyoti: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. T.: 2005.

7. Сейфуллаева М.Э. Механизм формирования экспортного потенциала региона // Регион. – 2007. – № 1. – С. 68-83.

8. Фокина Д.А. Факторы формирования экспортного потенциала машиностроительного предприятия / Д.А. Фокина, Г.Я. Белякова: <http://iubpe.sfu-kras.ru>.

9. Рогов В.В. Экспортный потенциал России: состояние, ориентиры и условия развития // Внешнеэкономический бюллетен. – 2004. – № 5. – С. 58-65.

10. Климова Н.В. Экспортный потенциал сельского хозяйства России / Н.В.Климова, М.И. Ищенко // Научный журнал КубГАУ – Scientific Journal of KubSAU. – 2016. – №119. – С. 58.

11. Лобанова Л.А. Региональный аспект формирования экспортного потенциала сельскохозяйственного сырья и продовольствия // Вестник национальной академии наук Беларуси. – 2005. – № 5. – С. 15-17.

12. Мосейко В. Многофакторная оценка экспортного потенциала малых и средних предприятий / В. Мосейко, Ю. Азмина // Вестник Волгоградского государственного университета. Серия 3. Экономика. Экология. – 2012. – № 2 (21). – С. 63-71.

13. Muallif tadqiqotlari asosida tuzilgan.

14. Xushvaqtova X.S. Bozor sharoitida mevasabzavot kichik majmuasida agrosanoat integratsiyasini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy muammolari. Iqt. fan. nom. ilm. dar. olish uchun yozilgan dis. avtoref. – T., 2005. – 25 b.

15. Muxitdinova U.S. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mevasabzavotchilik mahsulotlari bozorini rivojlantirish yo'nalishlari. Iqt. fan. dok. ilm. dar. olish uchun yozilgan dis. avtoref. – T., 2010. – 36 b.

16. Saidov M.X., Rustamova I.B. Yangi va qayta ishlangan mahsulotlarni sotish bozorlaridagi marketing izlanishlar. O'quv qo'llanma/. – T.: 2018. – 120 b.

17. Ergashev E.I. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida bog'dorchilik va uzumchilik tarmog'ini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari. Iqt. fan. nom. ilm. dar. olish uchun yozilgan diss. avtoref. – T., 2009. – 22 b.



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz